



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **HAMKORLIK TAMOYILLARI ASOSIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Egamberdiyeva Turg'unoy Ahmadjonovna**  
Farg'ona davlat universiteti, professor DSc  
**Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi**  
Qo'qon davlat universiteti, o'qituvchi (PhD)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Xususan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari va oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda ta'lim sifati tushunchasining nazariy asoslari, boshqaruv mexanizmlari, monitoring va baholash tizimlari yoritilib, ularning zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish zarurati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvlari, institutsional hamkorlik mexanizmlari hamda tajriba-sinov ishlari natijalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim sifati, ta'lim menejmenti, sifat boshqaruvi, monitoring, uzluksiz ta'lim, oliy ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, integratsiya, hamkorlik, ta'lim samaradorligi, boshqaruv tizimi, innovatsion yondashuv.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ СОТРУДНИЧЕСТВА**

**Эгамбердиева Тургунуй Ахмаджонова**  
Ферганский государственный университет, профессор DSc  
**Саидова Хилолахон Рашидjon кизи**  
Кокандский государственный университет, преподаватель (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье на основе комплексного подхода рассматриваются вопросы совершенствования системы контроля и управления качеством образования. Особое внимание уделяется научному обоснованию влияния сотрудничества между учреждениями общего среднего и высшего образования на качество и эффективность образовательного процесса. В исследовании раскрываются теоретические основы понятия качества образования, механизмы управления, системы мониторинга и оценки, а также необходимость их совершенствования в соответствии с современными требованиями. Кроме того, анализируются интегрированные подходы к управлению образовательным процессом, механизмы институционального сотрудничества и результаты опытно-экспериментальной работы. Полученные результаты свидетельствуют о том, что укрепление сотрудничества между образовательными учреждениями является важным фактором повышения качества образования и эффективности управления.

**Ключевые слова:** качество образования, образовательный менеджмент, управление качеством, мониторинг, непрерывное образование, высшее образование, общее среднее образование, интеграция, сотрудничество, эффективность образования, система управления, инновационный подход.

## **IMPROVING THE EDUCATION QUALITY MANAGEMENT SYSTEM BASED ON THE PRINCIPLES OF COLLABORATION**

**Egamberdiyeva Turg'unoy Ahmadjonovna**  
Fergana State University, Professor (DSc)  
**Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi**  
Kokand State University, Lecturer (PhD)

### **Abstract**

This article analyzes the issues of improving the system of educational quality control and management through a comprehensive approach. Particular attention is given to the scientific justification of the impact of cooperation between general secondary education institutions and higher education organizations on the quality and effectiveness of education. The study examines the theoretical foundations

of educational quality, management mechanisms, monitoring and assessment systems, and highlights the need to develop them in accordance with modern requirements. Furthermore, the article discusses integrated management approaches, institutional cooperation mechanisms, and the results of experimental research conducted in the educational process. The findings indicate that strengthening collaboration among educational institutions is a key factor in enhancing educational quality and management effectiveness.

**Keywords:** educational quality, educational management, quality management, monitoring, lifelong education, higher education, general secondary education, integration, collaboration, educational effectiveness, management system, innovative approach.

O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida ta’lim tizimini isloh qilish, sifat va samaradorlikni ta’minlash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Chunki jamiyat rivojlanishi ilm-fanga investitsiya kiritish orqali inson kapitalidan ratsional foydalanishga bog‘liq ekanligi namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, “inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”. Darhaqiqat, rivojlangan davlatlar amaliyoti ham ta’lim tizimini isloh qilish, unga e’tibor va investitsiyalarni ko‘paytirish hamda inson resurslarini to‘g‘ri boshqarish lozimligini ko‘rsatmoqda. Shu ma’noda, bugun ta’limdagi islohotlarni jadallashtirish bilan birga, to‘g‘ri va samarali boshqaruv tizimini yaratish vazifalari ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbuskorligida “umumiy o‘rta ta’lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun barcha sharoitlarni yaratish” jarayonida ta’lim boshqaruvini ham isloh qilish va bu orqali uzluksiz ta’lim sifati hamda bilim berish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatish zarurati ortib bormoqda. Zero, “ta’lim jarayonini ixtiyoriy qurish va amalga oshirishdan, uning har bir qismi va bosqichini izchil asoslash hamda yakuniy natijani haqqoniy tashxislashga yo‘naltirilgan tizimga o‘tish” uchun mustahkam asos zarur. Shunday ekan, ta’lim tizimi boshqaruvining har bir qismini samarali va natijador tarzda olib borishga imkon beradigan menejment tamoyillarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim sifati muammosi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi ta’limni rivojlantirishga yangi yondashuvlarni talab qiladi. Buning natijasida bugungi kundagi maktab o‘quvchilarini tayyorlash sifatiga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgarmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri ta’lim sifati masalasi hisoblanadi. Haqiqatan ham, bugungi kunda yetuk kadrlar tayyorlashda sifatli ta’lim berish va shu asnoda maktab bitiruvchilarining oliy ta’lim tizimiga qamrov darajasini oshirish masalalari dolzarbdir.

Zamonaviy ta’lim muassasasi uchun “ta’lim sifati” tushunchasi, birinchi navbatda, uning ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, u shaxsni rivojlantirish uchun ichki ehtiyojlarni qondirishni ta’minlaydigan ta’lim xizmatining iste’mol xususiyatlari majmuasi sifatida qaraladi.

Shu munosabat bilan maktab darajasida ta’lim sifatini boshqarish zarurati tobora ortib bormoqda va dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki bu muammo har qanday maktab, har bir rahbar va o‘qituvchi uchun eng dolzarb masalalardan biridir.

Ta’lim sifatini boshqarish – ta’lim sifatini ta’minlash, takomillashtirish, monitoring qilish va baholashga qaratilgan strategik hamda tezkor harakatlarning birlashgan tizimidir.

Ko‘plab tadqiqotchilar ta’lim muassasasining boshqaruv jarayonini turlicha izohlaydilar. Masalan, S. Xedekar ta’lim muassasasida boshqaruv jarayonini “ta’lim maqsadlariga erishish yo‘lida inson va moddiy resurslardan foydalangan holda ta’lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish jarayoni” deb ta’kidlaydi. Demak, bu olim ta’lim muassasasi boshqaruvini inson va moddiy resurslar hamda boshqaruv sikliga bog‘lagan.

Boshqa bir olim O. Xomeriki esa ta’limdagi boshqaruv jarayonini to‘liq aks ettiruvchi ko‘p o‘lchovli konseptual modelni ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, boshqaruv faoliyati mazmunini to‘rtta yo‘nalish qamrab oladi: ma’muriy-xo‘jalik va moliyaviy faoliyat, o‘quv-metodik va tajriba-sinov ishlari, kadrlar bilan ishlash hamda jamoaning psixologik muhitini mustahkamlash. Demak, ta’lim muassasasi boshqaruvini keng qamrovli faoliyatni tashkil etishi va bunda moddiy-texnik ta’minotdan tortib jamoada psixologik muhitni boshqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab olishi lozim.

O‘zbekistonda ham ta’lim sifati boshqaruv jarayonlari ko‘plab tadqiqotchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bu borada turlicha munosabatlar bildirilgan. Masalan, tadqiqotchi F. Botirovaning tahlillariga ko‘ra, ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta’lim va tarbiyaning aniq maqsadga

qaratilganligi erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etadi. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash hamda moddiy-texnik bazani yaxshilash, jamiyatni ma'naviy yangilash, eng avvalo, yosh avlodga milliy an'analar, insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi. Bularning barchasi yosh kadrlarni tayyorlash va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishda boshqaruv tizimiga ham alohida e'tibor qaratish, tizim rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan byurokratik to'siqlarni, boshqaruv kadrlari bilan bog'liq muammolarni va ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa omillarni bartaraf etish ham juda muhim.

Boshqa bir tadqiqotchi olim S. Toshtemirova fikricha, "jahon amaliyotida muayyan mutaxassislar kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda ta'lim boshqaruvi natijaviyligiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, bunda asosiy urg'u ta'lim sifati menejmentiga qaratilmoqda. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta'lim tizimini boshqarishning nazariy-metodologik asoslari, sifat menejmenti va ta'lim sifati monitoringini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ta'lim sifati va samaradorligi uyg'unligini ilmiy jihatdan asoslovchi takliflarni ishlab chiqish, oliy ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan".

Shunday ekan, ta'lim menejmenti va monitoringini yuqori sifat darajasiga olib chiqish, unga yangi vazifalar yuklash, shuningdek, samarali boshqaruv tamoyillarini joriy etish orqali ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatish kadrlar tayyorlash tizimi uchun juda zarur talabga aylanmoqda. Shu bois maktab ta'limi bilan oliy ta'lim tizimi hamkorligini izchil yo'lga qo'yish va boshqaruvni samarali tashkil etish orqali ta'lim sifati hamda samaradorligini ta'minlash, uzluksiz ta'limni yangi bosqichga ko'tarish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, ta'lim sifati deganda ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari hamda ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning qanoatlantirish darajasi tushuniladi. U jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, hayotiy va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shakllanishining ehtiyoj va umidlarga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya hisoblanadi.

Boshqa bir olim esa ta'lim sifatiga tegishli ta'lim dasturining o'quv-dasturiy hujjatlari talablariga mosligi va muvofiqligi sifatida ta'rif beradi. Fikrimizcha, ta'lim sifati inson, jamiyat va davlat ehtiyojlari hamda manfaatlarini qondiruvchi xususiyatlar majmuasi hisoblanadi. Saodat Toshtemirova o'z tahlillari asosida ta'lim sifatiga "ta'lim oluvchilar bilimining xalqaro va davlat standartlariga mosligi, turli darajalardagi ta'lim muassasalari faoliyatining natijadorligi, muassasaning muvaffaqiyatli faoliyati" deb ta'rif beradi.

O'zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida ta'lim sifati oldindan rejalashtirilgan natijalarga erishishga qaratilgan nazorat jarayoni bo'lib, ta'lim ishtirokchilarini samarali mehnatga qiziqtirish, ta'lim muassasasi faoliyatining barcha yo'nalishlarini o'zini o'zi baholash asosida doimiy takomillashtirib borish tizimidir.

Ta'lim sifatiga doimiy nazorat va boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishiladi. Shu ma'noda ta'lim sifatining nazorat-boshqaruvi ta'lim jarayoni samaradorligini, belgilangan davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlariga muvofiqligini tizimli ravishda kuzatish, baholash hamda olingan natijalarga asoslanib boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonidir.

Ta'lim sifatining nazorat-boshqaruv tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim va maktab hamkorligini yo'lga qo'yish va bu jarayonni zamonaviylashtirish uzluksiz ta'limda ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, ta'lim sifatini oshirishda va bozor talablarini ta'minlashda bozor talablaridan kelib chiqqan holda ta'limni tashkil etish, ta'lim yo'nalishlarini iste'molchi talablaridan kelib chiqib ular bilan bog'lash, ta'lim muassasalari hamda ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro doimiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, ta'lim ishtirokchilari va kadrlar buyurtmachilarining hamkorlik samaradorligini ta'minlash kabi ishlarni amalga oshirish zarur.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'z bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga, uzluksiz ta'limni davom ettirishga qiziqtirish zarur. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun o'qishga qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning bilim, ko'nikma hamda malakalarini baholash bo'yicha yo'riqnomalar bilan birgalikda bitiruvchilarning bilim darajasiga qo'yiladigan talablarni ham jo'natadigan bo'lsalar, samaraliroq bo'ladi.

Bu bir tomondan bitiruvchilarning tayyorgarligini baholashning obyektivligini oshiradigan bo'lsa, boshqa tomondan esa ta'lim muassasalariga o'quvchilarni o'qitish sifatini oshirish maqsadida o'quv

jarayonini tuzatish (shu jumladan, moddiy-texnik bazani takomillashtirish) imkonini yaratadi.

Ta'lim sifatining nazorat-boshqaruv tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim va maktab hamkorligi nafaqat maktab bitiruvchilarining ta'lim sifatini oshirish hamda oliy ta'limga o'qishga kirishlari uchun metodik yordam ko'rsatishni, balki oliy ta'lim bitiruvchilarining mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi va ish bilan ta'minlanishida kadrlar buyurtmachisi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash sifati masalasida hamkorlik qilish vazifasini ham nazarda tutadi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimini takomillashtirish hamda uni modernizatsiya qilish jarayonida umumiy o'rta ta'lim muassasalari va oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish uzluksiz ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga va ijobiy natijalarga erishishga xizmat qiladi. Bunday hamkorlik ta'lim jarayonining uzviyligini ta'minlab, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar integratsiyasini kuchaytiradi.

Ta'lim sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishda institutsional hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish, ilmiy asoslangan gipotezalarni ilgari surish va ularni tajriba-sinov orqali tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniq belgilash, xolislik va obyektivlik tamoyillariga amal qilish, shuningdek, maktab ta'limi bilan bog'liq tashkiliy-pedagogik faoliyatni tizimli va izchil tashkil etish zarur.

Shuningdek, maktab va oliy ta'lim o'rtasidagi hamkorlik samaradorligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni aniqlash muhim metodologik vazifa hisoblanadi. Muammoni faqat pedagogik emas, balki ijtimoiy tizim doirasida kompleks tahlil qilish uning kelib chiqish sabablari va boshqa tizimli muammolar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Bu yondashuv muammoning chuqur ildizlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimidagi mavjud kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni, shart-sharoitlarni hamda ijtimoiy determinantlarni chuqur o'rganish zarur. Chunki yetarli nazariy asos va ilmiy tahlilsiz amaliy faoliyatni samarali tashkil etish mumkin emas. Demak, muammoning nazariy manbalarini o'rganish va u bilan bog'liq omillarni tizimli tahlil qilish mazkur yo'nalishda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishning asosiy sharti hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan eksperimental ishlar natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim va maktab hamkorligiga asoslangan boshqaruv yondashuvlari ta'lim sifatini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, eksperimental kuzatuvlar, nazariy tahlillar va ilmiy umumlashtirishlar asosida ta'lim sifati ko'p jihatdan maktab va oliy ta'lim tizimlarining o'zaro integratsiyasi hamda uzviy hamkorligiga bog'liqligi isbotlandi. Bu esa maktab ta'limi va oliy ta'limning yagona uzluksiz ta'lim tizimi doirasida bir-birini to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi komponentlar sifatida qaralishini taqozo etadi.

Mazkur yondashuv ta'lim tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi mavjud institutsional tafovutlarni kamaytirish, ularni yagona strategik maqsadlar asosida integratsiyalash hamda hamkorlikka asoslangan boshqaruv metodologiyasini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bunda maktab ta'limi oliy ta'lim uchun tayanch bosqich sifatida, oliy ta'lim esa jamiyat ehtiyojlariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi tizim sifatida o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlashda eksperimental ma'lumotlarning statistik tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tajriba natijasi belgilangan mezonlar asosida qayta ishlanib, taqqoslanadi, tizimlashtiriladi va kompleks tahlil qilinadi. Statistik tahlil natijalari asosida olingan ma'lumotlarning obyektivligi va ishonchliligi ta'minlanib, ilmiy xulosalarning asoslanganligi kuchaytiriladi.

Shu bilan birga, ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim va maktab hamkorligining samaradorligini baholashda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarning integrallashgan ta'sir darajasini aniqlash muhim hisoblanadi. Mazkur yondashuv asosida amaliy tadqiqotlar doirasida universitetlar hamda ularga biriktirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyati kompleks tahlil qilindi. Tahlil natijalari maktab va oliy ta'lim o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining mavjud holatini, ularning samaradorlik darajasini hamda takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim sifatining nazorat-boshqaruv tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim va maktab hamkorligi bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi.


1-jadval. Ta'lim sifatining nazorat-boshqaruv tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim va maktab hamkorligi samaradorligini aniqlash mezoni va indikatorlari

№	Mezonlar	Indikator
1	Kognitiv	O'quvchilarining bilim sifati samaradorligi

2	Faoliyatga doir	O'quvchilarning ko'nikma va amaliy malakalarga egalik ko'rsatkichi, kompetensiyalarining o'sish samaradorligi
3	Diagnostik	O'qituvchilarning bilim, ko'nikma, malaka darajasi
4	Emotsional-motivatsion	Boshqaruv jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikning ta'minlanganligi
5	Refleksiv-diagnostik	Monitoring va baholash jarayonlari samaradorligi

Ushbu mezonlar asosida yuqori, o'rta va past darajalarda tajriba va nazorat guruhi respondentlarining statistik ko'rsatkichlari aniqlandi. Tajriba va nazorat guruhi respondentlarining statistik ko'rsatkichlarini hisoblash va ularning statistik tahlilini o'tkazishda matematik statistika usullaridan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarining boshlang'ich va yakuniy bosqichlarida respondentlar faoliyatini tahlil etish, ta'lim sifatining nazorat-boshqaruv tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim muassasalari va maktablar hamkorligi bo'yicha samaradorlik darajalarini baholash natijasida ijobiy ko'rsatkichlar qo'lga kiritildi. Bu holat diagrammada quyidagi ko'rinishni oldi (1-rasm).



1-rasm. Ta'lim sifatining nazorat-boshqaruv tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim va maktab hamkorligi bo'yicha diagramma

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi respondentlarda nazorat guruhidagi respondentlarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan yondashuv yuqori samaradorlikka ega. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan maxsus dastur va metodika g'oyaviy-nazariy, tashkiliy-texnologik hamda amaliy-metodik jihatdan amaliyot talablariga mosligi bilan ajralib turadi va ularning qo'llanilishi ta'lim sifatini boshqarish jarayonlarini optimallashtirish imkonini berishi eksperimental tarzda isbotlandi.

Ta'kidlovchi tajriba natijalari mazkur dastur va metodikaning ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim muassasalari va maktablar o'rtasidagi hamkorlikni samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonining ilmiy-pedagogik va metodik talablarga muvofiq tashkil etilishi olingan natijalarning ishonchligi hamda amaliy ahamiyatini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Umumiy tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, hozirgi bosqichda mamlakatimiz ta'lim xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifati samaradorligini oshirish uchun boshqaruvning zamonaviy va integratsiyalashgan shakllarini joriy etish zarur. Xususan,

hamkorlikka asoslangan boshqaruv modeli oliy ta'lim muassasalari va maktablar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirish orqali ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tizimini takomillashtirishda qiyosiy hamda mutlaq ustunliklarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mazkur modelning amaliy qo'llanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tashkiliy va funksional cheklovlarni aniqlash hamda bartaraf etish ham muhim vazifa sifatida qaraladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 30.
2. Беспалько О. В. Социальная педагогика: схемы, таблицы, комментарии: учеб. пособие. – М.: Центр учебной литературы, 2009. – 208 с. – ISBN 978-966-364-837-8.
3. Полонский В. М. Словарь терминов и понятий по законодательству Российской Федерации об образовании. – М., 1995.
4. Шишов С. Е., Кальней В. А. Мониторинг качества образования в школе. – М., 1999.
5. Khedekar S. Educational Management. III.1 Function of Educational Management. – TSCER, 2007. – P. 1.
6. Matkarimov J. Sh., Sharofaddinov Sh. A. Ta'lim jarayonida boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashga oid nazariy qarashlar // Zamonaviy ta'lim. – 2015. – № 3. – B. 13.
7. Зверева В. И. Организационно-педагогическая деятельность руководителя школы. – М.: Новая школа, 1997. – С. 28–29.
8. Третьяков П. И. Формирование и развитие системы управления общеобразовательной школой: дис. ... д-ра пед. наук. – М., 1997.
9. Toshtemirova S. A., Muxammadiyev L. G'. Ta'lim sifati boshqaruvi va bu yo'nalishdagi xalqaro modellarning o'ziga xos xususiyatlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, Issue 3. – P. 771.